

**SA’DIY G‘AZALLARI MATNI XUSUSIDA AYRIM
MULOHAZALAR**

Dilnavoz Sattorova

*Denov tadbirkorlik va pedagogika
instituti stajyor-o‘qituvchisi*

Tel: +998919690112

E-mail: sattorovadilnavoz5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlari Xiva adabiy muhitiga mansub ijodkor – Sa’dulla to‘ra Said Abdullaxon – Sa’diy lirik asarlari ko‘chirilgan manbalar haqida mulohazalar bayon qilingan. Shuningdek, ushbu manbalardagi she’rlarning qiyosiy tahlili asosida shoir shoir lirikasining janr va mavzu ko‘lami belgilangan.


Kalit so‘zlar: Sa’diy, qo‘lyozma, toshbosma, devon, tazkira, g‘azal, matn.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Xorazm adabiy muhiti o‘zining nodir durdona asarlari bilan milliy adabiyotshunosligimizda alohida o‘rin tutadi. Bunday merosning yuzaga kelishida shoh va shoir Feruzning xizmatlari juda katta. Kitobxonlik, adabiy davralarni o‘sha davr sharoitida ma‘rifat yoyishning muhim shakli deb bilgan Feruz adabiyot va san’at taraqqiysiga qaratib, ijod ahlini rag‘batlantirishga, ularning bayoz, devonlar tuzishiga, tarjima asarlarini ko‘paytirishiga alohida e’tibor berdi. [Б.Азизов.1:24]. Ular orasida Feruzning yaqinlari, shahzodalar ham ijod qilganlar. Feruz boshchiligidida ko‘plab asarlar, tarjimalar, to‘plamlar yaratilgan. Ushbu adabiy muhitda devon yaratish an’anasi ham samarali davom etgan. Ushbu muhitning iste’dodli shoirlaridan biri Sa’dulla to‘ra Sa’diydir. Shaxzoda Sa’diy sohibi devon shoirlardan bo‘lib, uning devoni manbalari O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanadi. Sa’diy ijod na’munalari ko‘chirilgan 909/2 raqamli qo‘lyozma devonda shoirning 22 ta arab va fors harflar (اب ت ث ج ح د ذ ر ز س ش) bilan tugaydigan g‘azallar berilgan. Bular nasta’liq xatida yozilgan. Jumladan, “ل” harfiga -14 ta (12 ta turkiy, 2 ta forsiy), “ب” harfiga -12ta (11 ta turkiy , 1 ta forsiy), “ت” harfiga -10 ta (9ta turkiy ,1 ta forsiy) “ث” harfiga - 4 ta, “ج” harfiga - 3 ta, “ح” harfiga 2 ta, “خ” harfiga 3 ta, “د”- harfiga 4 ta (3 ta turkiy , 1 ta forsiy), “ذ” harfiga 1 ta, “ر” harfiga -21 ta, “ز” harfiga - 7ta, “س” harfiga - 1 ta, “ش” harfiga -1ta, “غ” harfiga - 1 ta, “ق” harfiga - 2 ta, “گ” harfiga - 7 ta “ک” harfiga -21 ta, “ل” harfiga -3 ta (forsiy), “م” harfiga - 6ta (5ta turkiy, 1 ta forsiy), “ن” harfiga - 3ta, “ه” harfiga - 5ta, “ى” harfiga - 14ta she’r mavjud.

Sa’diy g‘azallari to‘rt baytdan o‘n besh bayt hajmgacha yozilgan. Ushbu devonda 2 ta to‘rt baytli, 23 ta besh baytli, 124 ta 7 baytli, 11 ta 9 baytli, 3 ta o‘n bir baytli, 1 ta o‘n uch baytli, 1 ta o‘n besh baytli, muhabbat, ijtimoiy mavzularda yozilgan Shoir o‘z she’rlarida tashxis, tajnis, istiora, talmeh, tazod, ishtiqoq, iyhom, tajohul orif, takrir kabi she’riy san’atlardan foydalangan. Sa’diy g‘azallarida

Navoiy, Ogahiy, Feruz, Tabibiy kabi shoirlarning ta’siri borligini ko‘rishimiz mumkin. Shoир lirik asarlari diniy-ma’rifiy, ishq-muhabbat, ijtimoiy-falsafiy mavzularda yozilgan.


Sa’diy lirik asarlari 1906 (milodiy 1324) -yilda “Xaft Shuarо”ga, 1907 (milodiy 1325)-yilda 909/2 raqamli devonga, 1908(milodiy 1326)-yilda Tabibiyning “Majmuai si shuaroi payravi Feruzshohiy”t azkirasiga, 1909(milodiy 1327)-yilda 7092 raqamli qo‘lyozma devonga ko‘chirilgan. Ko‘chirilish jarayonida Sa’diy g‘azallarida bir qancha o‘zgarishlar kuzatiladi. Misol uchun, Sa’diy qalamiga mansub “Kelur” radifli g‘azali “Xaft Shuarо”, 909/2 raqamli devon, Tabibiyning “Majmuai si shuaroi payravi Feruzshohiy” qo‘lyozmalarida mavjud. Ammo g‘azalning har uchchala manbada ham farqli jihatlari mavjud. Bunday farqlarning kelib chiqishiga ma’lum bir sabablarni ko‘rsatish mumkin. Birinchidan, g‘azallar bir qo‘lyozmadan ikkinchi qo‘lyozmaga ko‘chirilish jarayonida kotibning xatosi tufayli farqli ko‘chirilishi mumkin. Ikkinchidan, Sa’diy ma’lum bir vaqt davomida g‘azallari ustida takror-takror ishlashi natijasida o‘zgarishga uchragan bo‘lishi mumkin. Sa’diyning “Kelur” radifli g‘azali 8725 raqamli toshbosmaning kotib tomonidan ikkinchi bor devonning so‘nggi sahifalarida qayta raqamlangan va ikkinchi g‘azal sifatida ko‘chirilgan. Toshbosmada g‘azal quyidagi tarzda uchraydi:



Topg‘il farah, ey zor ko ‘nglum, bu kecha yoring kelur,

Jonbaxsh lal-u sarvqad-u mohi ruxsoring kelur.

Lekin ushbu baytdagi birinchi misra 909/2 raqamli devonda va Tabibiyning “Majmuai si shuaroi payravi Feruzshohiy” tazkirasida o‘zgacha tahrir etilgan. 909/2 raqamli devonda:



Top, ey dili mahzun, farahkim bu kecha yoring kelur,

Jonbaxsh la'l-u sarvqad ham lola ruxsoring kelur.

Tabibiyning “Majmuai si shuaroi payravi Feruzshohiy”tazkirasida:




*Top, ey Farah mahzun dil, kim bu kecha yoring kelur,
Jonbaxsh la'l-u Sarvqad ham lola ruxsoring kelur.*

Ushbu g‘azal 909/2 raqamli devonning 104^b sahifasida ham ko‘chirilgan bo‘lib, devondagi 59-g‘azal, Tabibiyning “Majmuai si shuaroi payravi Feruzshohiy” tazkirasining 213^b sahifasida qo‘lyozmadagi 755-g‘azal hisoblanadi.


G‘azalning maqtasida ham farqli jihatlar bor. “Xaft Shuar”da va 909/2 raqamli devonning maqtalaridagi ikkinchi misra tubdan farq qiladi. “Xaft shuar”da so‘nggi baytning ikkinchi misrasida matladagi birinchi misra takrorlangan. Lekin 909/2 raqamli devonda esa bunday holat kuzatilmaydi. Matlaga yaqin boshqa misra bilan ijodkor g‘azalni yakunlaydi. Tabibiyning “Majmuai si shuaroi payravi Feruzshohiy” tazkirasining maqtasida ham matlaning birinchi misrasi aynan takrorlanmaydi, vaholanki, maqta 909/2 raqamli devondagi nusxa bilan bir xil tugallangan. Ammo, maqtada “hazin” so‘zi aynan shu qo‘lyozmada tushirilib qoldirilgan. Dastlabki toshbosma va qo‘lyozma manbalarda esa bu so‘z mavjud. Jumladan,

“Xaft Shuar”da:




*Der o‘ziga Sadiyi hazin, bu shodlig‘lar birla kim,
Topg‘il farah, ey zor ko‘nglim, bu kecha yoring kelur.*

909/2 raqamli devonda:



*Der o‘ziga Sa‘diyi hazin bu shodlig‘lar birla kim,
Top, ey hazin ko‘nglim, farahkim bu kecha yoring kelur.*


Tabibiyning “Majmuai si shuaroi payravi Feruzshohiy” tazkirasida:



*Der o‘ziga Sa‘diyi hazin bu shodlig‘lar birla kim,
Top, ey xazin ko‘nglim, farah kim bu kecha yoring kelur.*


Sa‘diy Xorazmiyning yana bir “Lutf ila eshit arzim , ey mahliqo, bukun ,...” deb boshlanuvchi g‘azalida ham bunday o‘zgarishlarni kuzatishimiz mumkin. Ushbu

g‘azal Sa‘diyning 909/2 raqamli devonida, “Majmuai si shuaroi payravi Feruzshohiy” tazkirasida uchraydi. Ammo 8725 raqamli toshbosma manbada mavjud emas. Yozilish ketma ketligiga e’tibor qaratsak, demak bu g‘azal keyingi yillarda yozilgan. G‘azal 909/2 raqamli devonning 129^b sahifasida ko‘chirilgan. Kotib tomonidan qayta raqamlanganda 12-g‘azal hisoblanadi. Tabibiyning tazkirasida 602^b sahifada ko‘chirilgan. Qo‘lyozmadagi 2120-g‘azal hisoblanadi. 909/2 raqamli devonda:



*Noz ustina noz aylab, injitma niyozi ahlin,
Kim husninga aylarlar sidq ila duo bukun.*

Tabibiyning “Majmuai si shuaroi payravi Feruzshohiy” tazkirasida:




*Noz ustina noz aylab, injitma niyozi ahlin,
Kim haqinga aylarlar sidq ila duo bukun.*

Agar diqqat bilan e’tibor qaratsak, bu ikki nusxada birinchi misralar aynan bir xil. Lekin ikkinchi misradagi “husn” so‘zi o‘rniga Tabibiyning tazkirasida “haq” so‘zi ko‘chirilgan. Devon tazkiradan oldin yaratilgan. Bu o‘zgarishga ikki xil sabab ko‘rsatishimiz mumkin. Birinchidan, Sa‘diy o‘z g‘azali ustida qayta ishlagan, ikkinchidan esa ushbu qo‘lyozmani ko‘chirgan kotib tomonidan so‘z o‘zgartirilgan bo‘lishi mumkin. Ammo, birinchi sabab bunga yaqinroqdek Chunki ushbu bayt mazmuniga “husn” so‘zi emas, balki “haq” so‘zi ko‘p jihatdan to‘g‘ri keladi.

Xuddi shunday, Sa‘diyning “Husning afzun aylasun xoliq sanga aykab karam, ...” deb boshlanuvchi g‘azalida ham o‘zgarishlar mavjud. Ushbu g‘azal ham Sa‘diyning 909/2 raqamli devonida, “Majmuai si shuaroi payravi Feruzshohiy” tazkirasida uchraydi. 8725 raqamli toshbosma manbada mavjud emas. Demak, bu g‘azal ham “Xaft shuaro” ko‘chirilganligidan keyingi yillarda yozilgan bo‘lish ehtimoli katta. G‘azal 9 baytdan iborat. Devonning 127^a sahifasida ko‘chirilgan bo‘lib, ikkinchi bor raqamlanganda 6-g‘azal hisoblanadi. Tabibiyning tazkirasida esa 547^b sahifada ko‘chirilgan. Qo‘lyozmadagi 1935- g‘azal hisoblanadi. Baytlar soni bir xil bo‘lib,


909/2 raqamli devonda:



Husning afzun aylasun xoliq sanga aykab karam,

Ko ‘ngliga hech yetmasun bu dahri dundin zarra g ‘am, – tarzida uchraydi.

Bu bayt Tabibiyning “Majmuai si shuaroi payravi Feruzshohiy” tazkirasida quyidagicha:




Husning afzun aylasun xoliq sanga aylab karam,

Ko ‘ngliga hech yetmasun bu dahri dundin gard-u g ‘am.

Bayt g‘azalning birinchi bayti ya’ni matlasi hisoblanadi. Ikkala nusxada ham birinchi misra aynan takrorlangan. Ammo tazkirada ko‘chirilgan nusxada, ikkinchi misrada o‘zgarish kuzatiladi. Devon nusxasidagi ikkinchi misradagi “zarra g ‘am” so‘zi birikmasi Tabibiy tazkirasida “gard-u g ‘am” tarzida ko‘chirilgan. “Manga yo‘q vastingdin ey mehribon,...” deb boshlanuvchi g‘azalining oltinchi baytida ham o‘zgarish kuzatiladi. Sa’diyning 909/2 raqamli devonda, “Majmuai si shuaroi payravi Feruzshohiy” tazkirasida uchraydi. 8725 raqamli toshbosma manbada mavjud emas. Devonning 131^b-sahifada ko‘chirilgan. Yetti baytdan iborat bo‘lib 704^a sahifasida qayta raqamlanganda 21-g‘azal sifatida ko‘chirilgan.


909/2 raqamli devonda:



Ne bo‘lg‘ay lutf etib man zora bu dam,

Qadam yuz noz ila qo ‘ysang yagona, - bayti,

Tabibiyning “Majmuai si shuaroi payravi Feruzshohiy” tazkirasida:



Ne bo‘lg‘ay lutf etib man zora bu dam,

Qadam yuz noz ila qo ‘ysang bu yona, - tarzida uchraydi.

Yuqoridagi baytlarda birinchi misralar aynan bir xil. Ikkinci misralarda o‘zgarishlar kuzatiladi. 909/2 raqamli devonda keltirilgan oltinchi baytning ikkinchi

misrasida keltirilgan “yagona” so‘zi o‘rnida “Majmuai si shuaroi payravi Feruzshohiy” tazkirasida “yona” so‘zi keltirilgan. Ma’no jihatdan baytlarga qarasak, Shoir Sa’diy o‘z bayti ustida qayta ishlagan va Tabibiyning tazkirasida aynan qayta ishlangan nusxasi ko‘chirilgan.

Xulosa qilib ayganda, kelgusida Sa’diy asarlarini nashrga tayyorlashda shoir she’rlari ko‘chirilgan manbalarni qiyosiy-matniy jihatdan to‘liq o‘rganish lozim. Chunki faqat bir manba asosida tugal xulosalarni berish bir qancha xatoliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Qo‘lyozma № 909/2.
2. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Toshbosma № 7092.
3. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Toshbosma № 8725.
4. Азизов Бобоҷон Тарроҳ. Ҳоразм навозандалари. –Т.: Ғафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1985. – В. 24.
5. Лаффасий. Тазкираи шуаро // Нашрга тайёрловчи П. Бобоҷонов. Масъул мухаррир М. Абдулҳакимов. – Урганч: “Ҳоразм таҳририяти” нашр бўлими, 1992.